

УДК: 159.955:37.01

**FAN VA TA'LIMDA INNOVASION TAFAKKUR
TARZINING EVRISTIK AHAMIYATI**

*Sadikova Roza Ismailovna - katta o'qituvchi
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
Roza.sodykova@mail.ru*

*Nurullayeva Sabina Shavkat qizi
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti 9a-guruhi talabasi*

Аннотасија: Ushbu maqolada respublikamizda fan va ta'limda innovasion tafakkur tarzining kelib chiqishi, evristik ahamiyati, ijtimoiy roli tahlil qilingan. Bunda innovasiya tushunchasining kelib chiqishi, mazmun-mohiyati, fanlari tarmoqlashuvi va ijtimoiy hamda evristik ahamiyati tahlil qilingan. Innovasion tafakkur bo'yicha turli xil qarashlar va yondashuvlar qiyosiy tahlil jihatidan ko'rib chiqilgan.

Калит со'злар: innovasiya, innovasion tafakkur, evristika, innovasion faoliyat, yangilik, innovasion tafakkur tarzi, tafakkur tarzi.

Аннотасија: В данной статье проанализированы истоки, эвристическое значение, социальная роль инновационного стиля мышления в науке и образовании в нашей республике. В нем были проанализированы происхождение, содержание, разветвление дисциплин, а также социальное и эвристическое значение концепции инноваций. Различные точки зрения и подходы к инновационному мышлению рассматриваются с точки зрения сравнительного анализа.

Ключевые слова: инновация, инновационное мышление, эвристика, инновационная деятельность, инновация, инновационный стиль мышления, образ мышления.

Annotation: in this article, the origin, heuristic significance, social role of the style of innovative thinking in science and education in our republic are laid down. It analyzes the origin, content and essence of the concept of innovation, the branching of Sciences and the social and heuristic significance. Various views and approaches to innovational thinking have been considered in terms of comparative analysis.

Keywords: innovation, innovation thinking, heuristics, innovation activity, innovation, innovation thinking style, thinking style.

Kirish.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, milliy falsafamizning shakllanishi va rivojlanishida ulkan evristik, kreativ imkoniyatlar va konstruktiv istiqboli vujudga keldi. Xususan, innovasion konstruktivlikni metafalsafiy jihatdan tadqiq qilish o'ta dolzarb vazifadir.

Bu borada yoshlarga qaratiladigan diqqat-e'tibor, ijtimoiy himoya tahsinga sazovordir. "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hеч qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi" [Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.:

“O‘zbekiston”, 2016. – B. 14.]ga fan, texnika va ta’limda proyektiv tafakkur tarzi kognitiv innovasiya turini rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir.

Shu bilan birga, ijtimoiy ong shakllanishi va tafakkurda yangicha yo’nalishlar va prinsiplar o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ularni mukammallashtirish uchun katta imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda. Bu imkoniyat esa yosh tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarida konstruktiv ravishda namoyon bo‘lmoqda.

Materiallar va metodlar.

Maqolani tayyorlashda xorij, rus va mahalliy olimlarning innovasion tafakkurga oid ilmiy ishlaridan unumli foydalanildi: (Декия В.П. Инновационное мышление в XXI веке. Москва: Де-По, 2011.), (Усольцев А.П., Шамало Т.Н. Понятие инновационного мышления // Педагогическое образование в России.), (Qo‘shoqov Sh.S. Innovasion tafakkur konsepsiyasi) (Utemov V.V. Zadachi otkrytogo tipa kak instrument formirovaniya innovatsionnogo myshleniya). Maqolada ilmiy bilishning tanqidiy-refleksiya, obektivlik, tizimli yondashuv normalari, analiz va sintez, analogiya, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, induksiya, deduksiya, tarixiylik va mantiqiylik birligi usullaridan unumli foydalanildi.

Asosiy qism.

“Innovasion tafakkur” atamasini 1993-yilda Jahon falsafiy Kongressida V.P.Deliya kiritgan, deb hisoblanadi. Unga ko‘ra, innovasion tafakkur o‘zining eng umumiy shaklida "yangi natijalarga olib keluvchi tafakkurni rivojlantirish", deb tushunilishi lozim, uning predmeti "voqyelikning yangi fragmentlarini yaratish, ularni o‘zgartirish yoki aksincha, mavjud voqyelikning barqaror holatini saqlab qolishga qaratilgan jarayonlar"dir. [Декия В.П. Инновационное мышление в XXI веке. Москва: Де-По, 2011. - С. 232.]Innovasion fikrlash bu yondashuvlarning oqilona murossasidir: unda ijodiy jarayonlar tasavvurni bog‘lab original g‘oyalarni hosil qilish uchun ishlatiladi. Bu g‘oyalar keyinchalik rasional va mantiqiy fikrlash yordamida tasniflanadi, tanlanadi, uyushtiriladi va sinovdan o‘tkaziladi.

Innovatsion tafakkur ko‘p bosqichli davriy jarayon bo‘lib, uning boshlanish, yuksalish va yakunlash farqlari, vaqt oraliklari mavjuddir. Innovasion tafakkurning fan va amaliyotdagi roli va ahamiyati ma’lum jihatdan evristik usul va yondashuvlarning rivojlantirilishiga bog‘liqdir. [Sultanova G.S. Postnoklassik ilmiy tafakkur tarzi va innovasiya. Monografiya. “Globoedit”, 2019. - B. 52.] Innovasion tafakkur tarzi insonning yangi ehtiyojlari va muammolarini qondirishga yo‘naltirilgan yangi g‘oyalar, qadriyatlar va loyihalarni ixtisoslashgan korxonalar va ularni yangilab turishga ketadigan vaqtni qisqartirishga qaratilgan intellektual faoliyat shakli va tizimidir.

Rus olimlari innovasion tafakkurning konstruktiv, transformasion, amaliy va ijodiy xarakterga ega ekanligini ta’kidlaydilar. [Усольцев А.П., Шамало Т.Н. Понятие инновационного мышления // Педагогическое образование в России. - 2014. - № 1. - С. 94-98.] Lekin bu jihatlar kreativ tafakkurda ham mavjuddir. Bu jihat ularning umumiylikni ko‘rsatadi.

Innovasion tafakkurni keng ijtimoiy ong yo‘nalishiga aylanishining sabab va oqibatini jamiyatda sodir bo‘ladigan innovasion taraqqiyot tashkil qiladi. [Qo‘shoqov Sh.S. Innovasion tafakkur konsepsiyasi // Fan va falsafada innovasion tafakkur muammolari. Ilmiy maqolalar to‘plami. - Samarqand: SamDU, 2010. - B. 17.] Natijada

innovation tafakkur kreativ tafakkurni amalga oshiruvchi ijtimoiy mexanizmga aylanadi.

Innovation tafakkurning xususiyatlari:

- originallik - narsalarni boshqacha ko'rish, taxminlarni shubha qilish va ish uchun an'anaviy yondashuvlardan chiqish qobiliyati;
- majburiyat, qat'iyat, o'z-o'zini rag'batlantirish, g'ayrat va tirishqoqlik;
- hamma narsada mukammallikka intilish va o'z-o'zini tanqid qilish;
- aql va hazil tuyg'usining moslashuvchanligi;
- boshqa odamlarning fikrlaridan mustaqillik, tashqi bosimga qarshilik va o'ziga ishonch;
- shubha, qiziquvchanlik, muammoli vaziyatlarda noaniqlik va murakkablikka bardoshlilik.

Demak, innovation tafakkur yangilikni yaratish, amaliyotga joriy etish ekanligini inobatga olsak unumli tafakkur turiga kiradi. Innovation tafakkur ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, hozirgi zamonda jamiyatning barcha sohalarini innovation tafakkurni qo'llash ijtimoiy taraqqiyotga olib keladi. Xususan, biznes, ta'lim, servis, boshqaruv sohalarida innovatsiyani kiritish shu sohani rivojlanishiga olib keladi. Masalan, innovatsiyaning ahamiyatini biznes olami va ishlab chiqarishda olaylik, kelajakni oldindan ko'ra bilish noana'anaviy fikrlash mashhur rahbarlar - innovatorlar Bill Geys, Stiv Jobslarning faoliyatlarida yaqqol ko'zga ko'ringan. Bunday kishilar dunyoga mashhur bo'lganlarining sabablari ham innovation tafakkurga tayanib, o'z faoliyatlarini olib borishlarida edi. An'anaviy tafakkur esa shiddat bilan o'zgarayotgan zamon talablariga javob bermay qolmoqda. Shu bois, kimki o'z faoliyatida innovatorlikni mohirona qo'llay bilsa, shunday kishilar mashhurlikni qo'lga kiritib, ishlab chiqarishda ham ulkan samaradorlikka erishishadi.

Darhaqiqat, innovation tafakkur tarzi insonning yangi ehtiyojlari va muammolarini qondirishga yo'naltirilgan yangi g'oyalar, konstruksiyalash, qadriyatlar va loyihalarni ixtisoslashgan korxonalar va ularni yangilab turishga ketadigan vaqtni qisqartirishga qaratilgan intellektual faoliyat shakli va tizimidir. Asosan, yangi faktlar, g'oyalar va loyihalar yaratishga yo'naltirilganligi, bu jarayonning tartiblanganligi, tizimliliigi davriy muntazam xarakterga ega bo'lishi innovation faoliyatning o'ziga xos xususiyatini belgilab beradi.

Yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etish yangilik bo'lib, uning oqibatlarini ijobiy bo'lishi kerak. Innovatsiya evolyusion va inqilobiy yo'l bilan amalga oshiriladi.

Innovatsiya (lot, innovation – yangilash, yangilik) hisoblanadi:

- 1) yangilik, yangi narsalarni joriy etish, modernizatsiya qilish, isloh qilish;
- 2) iqtisodiyotda - yangi texnologiyaga, mehnatni tashkil etish va boshqarishning yangi shakllariga investisiya;
- 3) tilshunoslikda - yangi shakllanish, tilda yangi hodisa;
- 4) falsafada – yangi qarashlar, yondashuvlar, paradigmatlar va konsepsiyalar;
- 5) ta'limda – yangi o'qitish usullari, vositalari.

Demak, innovation tafakkurni yangilikka "xizmat qiluvchi" va uning muvaffaqiyatini ta'minlovchi alohida tafakkur turi sifatida qarash mumkin.

Ba'zi yondashuvlarga ko'ra, "kreativlik; ilmiy-nazariy; ijtimoiy, pragmatik, konstruktivlik kabi xususiyatlari innovasion tafakkurning xarakterli jihati ekan". [Усольцев А.П., Шамало Т.Н. Понятие инновационного мышления // Педагогическое образование в России. - 2014. - № 1. -С. 94-98.] Albatta bu fikr o'rinalidir.

Boshqa tadqiqotchi esa innovasion tafakkurni kreativlikka aynanlashtirib talqin qiladi, "innovasion tafakkur - bu muammoli vaziyatlarni hal qilishda deduktiv usuldan chetga (qolipdan) chiqishdir". [Утемов В.В. Задачи открытого типа как инструмент формирования инновационного мышления // Молодой ученый. - 2011. - №1. - С.45.] Shuning uchun ham innovasion fikrlash barcha hollarda ijtimoiy amaliyotining turli sohalarida yangi narsalarni topish, kashf etish, yaratish, shuningdek, avvalgi g'oyalar, qarashlar, baholar, yondashuvlar va texnologiyalarni yangilashga qaratiladi.

Innovasion tafakkur ko'p bosqichli davriy jarayon bo'lib, uning boshlanish, yuksalish va yakunlash farqlari, vaqt oraliqlari mavjuddir. Innovasion tafakkurning fan va amaliyotdagi roli va ahamiyati ma'lum jihatdan evristik usul va yondashuvlarning rivojlantirilishiga bog'liqdir.

Keyingi yillarda falsafaning yangi siymosi virtualistika, sinergetika, o'yin nazariyasi, postnoklassik falsafa, kreativ va innovasion tafakkur yo'nalishlari rivojlanib bordi. Bu esa jamiyatda innovasion ilmiy tafakkur tarzining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tafakkurda innovasiyaning namoyon bo'lishiga obyektiv va subyektiv omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Intellektual madaniyat, salohiyat; ta'lim sifati va zamonaviyligi;
2. Innovasiya va innovasion faoliyatga pragmatik munosabatni shakllantirish.
3. Innovasiya yaratuvchilarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish; jamiyatda innovasion faoliyat va mahsulotga buyurtma (ehtiyoj);
4. Innovasion loyihalarga davlat tomonidan mablag' ajratilishi;

Bunday tizimli va rasional yondashuv innovasiyani jamiyatda jadal rivojlanishiga olib keladi.

Fikrimizcha, innovasion tafakkur tarzi insonning yangi ehtiyojlari va muammolarini qondirishga yo'naltirilgan yangi g'oyalar, qadriyatlar va loyihalarni ixtisoslangan korxonalar va ularni yangilab turishga ketadigan vaqtni qisqartirishga qaratilgan intellektual faoliyat shakli va tizimidir. Asosan, yangi faktlar, g'oyalar va loyihalar yaratishga yo'naltirilganligi, bu jarayonning tartiblanganligi, tizimliliigi davriy muntazam xarakterga ega bo'lishi innovasion faoliyatning o'ziga xos xususiyatini belgilab beradi. Innovasion tafakkur ko'p bosqichli davriy jarayon bo'lib, uning boshlanish, yuksalish va yakunlash farqlari, vaqt oraliqlari mavjuddir. Innovasion tafakkurning fan va amaliyotdagi roli va ahamiyati ma'lum jihatdan evristik usul va yondashuvlarning rivojlantirilishiga bog'liqdir.

Xulosa.

Respublikamiz fuqarolarida innovasion tafakkur tarzining shakllanishi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'anaviy-ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohatlarning kognitiv mohiyatini anglash bilan bog'liq bo'lgan konstruktiv faoliyat natijasidir. Innovasiyaning ijtimoiy zaruriyati mutaxassislar va olimlarning innovasion tafakkurni shakllantirish bilan belgilanadi. Hozirgi zamon ilmiy tafakkur tarzida innovasion

konstruktivlik innovasion tafakkur, texnologiya, innovasion faoliyat va jarayonlar orqali amalga oshadi. Ilmiy tafakkur tarzining innovasion transformasiyasi muammosining metodik tahlilidan jamiyat taraqqiyotida, ilmiy rivojlanish natijasida yangi g'oya, qarashlar konseptual unsurga aylanmoqda

BIBLIOGRAFIYA

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O'zbekiston”, 2016. – B. 14.
2. Делия В.П. Инновационное мышление в XXI веке. Москва: Де-По, 2011. - С. 232.
3. Sultanova G.S. Postnoklassik ilmiy tafakkur tarzi va innovasiya. Monografiya. “Globoedit”, 2019. - B. 52.
4. Усольцев А.П., Шамало Т.Н. Понятие инновационного мышления // Педагогическое образование в России. - 2014. - № 1. - С. 94-98.
5. Qo'shoqov Sh.S. Innovasion tafakkur konsepsiyasi // Fan va falsafada innovasion tafakkur muammolari. Ilmiy maqolalar to'plami. - Samarqand: SamDU, 2010. - B. 17.
6. Утемов В.В. Задачи открытого типа как инструмент формирования инновационного мышления // Молодой ученый. - 2011. - №1. – С.45.